



CHILD'S HEART FLOWER

Surayyo Arziqulova ¹

¹ Teacher of Shakhrisabz branch of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4742033>

ARTICLE INFO

Received: 20th April 2021
Accepted: 25th April 2021
Online: 30th April 2021

KEY WORDS

The first step, development competencies, education, preschool education.

ABSTRACT

The article describes the exemplary functioning of the preschool education system, the use of a competency-based approach to education for the development of children's abilities, its importance and relevance, as well as the essence of the State Curriculum "First Step", the "Student Workshop". options are listed

BOLA QALBI GUL

Surayyo Arziqulova ¹

¹ Nizomiy nomidagi TDPU Shaxrisabz filiali o`qituvchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021
Ma`qullandi: 25-aprel 2021
Chop etildi: 30-aprel 2021

KALIT SO`ZLAR

Ilk qadam, rivojlanish sohasi kompetensiyalari, ta`lim, maktabgacha ta`lim.

ANNOTATSIYA

Maqolada , maktabgacha ta`lim tizimida namunali faoliyat ko`rsatish, bola iqtidorini rivojlantirish uchun ularga ta`lim berishda kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanilayotgani, uning ahamiyati, dolzarbligi shuningdek "Ilk qadam" Davlat o`quv dasturi mohiyati, o`quv dargohning "Talabalar ustaxonasi" imkoniyatlari sanab o`tilgan

Bola qalbi gul! Uni yosh niholga qiyoslashadi. Gulni parvarishlash, unga hayot bag`ishlash mohir bog`bonning san`atiga bog`liq. Shunday ekan bog`bon gulni o`z tajribasi, iqtidorini ishga solgan holda parvarishlaydi. Xuddi shunday, tarbiyachi ham o`z bog`ining gulu g`unchalarini kamol topishida o`z iqtidorini, imkoniyatlarini chamalaydi.

Darxaqiqat, maktabgacha ta`lim barcha ta`limlarning negizidir. Boshqacha aytganda, buyuk kashfiyotlar, ishlanmalar, ixtirolar debochasi maktabgacha ta`lim bosqichidan o`tadi desak yanglishmaymiz.

Ming shukrki, Yangi O`zbekiston rivojlanish jarayonining ilk bosqichlarida maktabgacha ta`lim tizimi vazirlik darajasida ko`tarilgani ham bu tizimning nechog`li ahamiyat kasb etishidan dalolatdir.

Darvoqe, tizimda namunali faoliyat ko`rsatish, bola iqtidorini rivojlantirish uchun ularga ta`lim berishda kompetensiyaviy yondashuvdan foydalaniladi. Bunda 5 ta majburiy ta`lim ya`ni rivojlanish soxasidan foydalanib kelinmoqda. Xususan, «Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalari, «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish»



sohasi kompetensiyalari,
«Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari»
sohasi kompetensiyalari,
"Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kom
petensiyalari «Ijodiy rivojlanish»
sohasi kompetensiyalaridir(2517-coh
18.10.2013. Maktabgacha ta'limga
qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash
haqida (lex.uz). «Jismoniy rivojlanish va
sog'lom turmush tarzini shakllantirish»
sohasi kompetensiyalari bosqichida bola yirik
matorika usulida asosiy harakatlar yurush,
yugurish, sakrash, yumalatish, emaklash,
o'rmalab chiqish orqali jamoa bo'lib, doira
bo'lib saflanadi,qayta saflana oladi,
muvozanatni saqlab yuradi, yuguradi, sport
zinasida yuqori va pastga harakatlanadi, bir
joyda ikki oyoqlab sakraydi, oldinga siljib
sakraydi, aylana yoyi tagidan emaklab o'tadi,
badantarbiya vaqtida mashqlarni takrorlaydi,
uch oyoqli va ikki oyoqli velosipedda uchadi,
oyoqlarini uchidan tovoniga almashtirib
yuradi, to'siqlarni aylanib yoki xatlab o'tadi,
gimnastika skameykasida muvozanatni
saqlagan xolda, qadamba qadam yuradi, qiya
doska ustida to'g'ri va yoni bilan yuradi,
yugurishning har xil turlarini bajaradi (ilonizi,
zigzag, mokisimon, to'siqlarni yengib o'tib),
turli usullar bilan sakraydi, bir necha predmet
oralab emaklaydi, qornida yotib, qo'llari bilan
tortilib emaklaydi, gimnastika narvoniga
o'rmalab chiqadi. "Sog'lom turmush
tarzini shakllantirish" da mustaqil qo'li, yuzini
yuvadi, tishini tozalaydi, sochiqdan, taroq va
dastro'mol yoki salfetskadan ovqat vaqtida
mustaqil qoshiq bilan foydalanadi, ovqatdan
so'ng og'zini chayadi, xonada tartibni
saqlaydi, o'zidan keyin o'yinchoqlarni
yig'ishtiradi, mustaqil hojatxonaga boradi,
xavfli bo'ladigan predmetlarni farqiga
boradi.«Ijtimoiy-hissiy rivojlanish»
sohasi kompetensiyalarida esa ertak, hikoya,
multfilmlar qahramonlariga hamdardlik
bildiradi, quvonch, qayg'u kabi hissiy holatni

tushunadi, o'z kechinmalari va hissiyotlarini
namoyon etadi («menga yoqadi», «men
yoqtirmayman»), boshqa bolaning
hissiyotlarini aniqlaydi va so'z bilan ifoda
etadi, boshqalarga hamdardlik bildiradi;
syujetli-rolli o'yinlarda ishtirok etadi, o'z
oilasi haqida so'zlar ekan, nima yoqishi va
yoqmasligi haqida gapiradi.
«Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari»
sohasi kompetensiyalarida o'zining ayrim
harakatlarini so'zlar bilan sharhlaydi, rasmda
ko'rgan narsasi haqida so'zlaydi, kattalarning
turli savollariga javob beradi (yaqin atrofiga
tegishli), muloqot davrida faollik bildiradi,
biror bir parchani tinglab, tanish asarning
nomini aytadi, kichik she'rni yoddan aytadi;
kattalar tomonidan aytilgan tanish hikoya,
ertakni davom ettiradi yoki tugallaydi, didaktik
o'yinlar o'ynaydi.Bundan tashqari 5-6
yoshdagi bolalar kuzatayotgan hodisa va
voqealarni tushuntirib
beradi,umumlashtiruvchi so'zlarni to'g'ri
qo'llaydi (meva, sabzavot, daraxtlar, qushlar,
idish-tovoq), o'ziga nisbatan predmetlar
joylashuvini ta'riflaydi (oldimda, stolda) ;
so'zlarni mazmuniga ko'ra to'g'ri qo'llaydi,
nutqida ma'nosiga monand asosiy so'z
turkumlarini qo'llaydi, bir negizli so'zlarni
(namuna asosida) tuza oladi (mushuk-
mushukcha-mushukli) ;
grammatik sodda va murakkab gaplar tuzadi,
suhbatlasha oladi, kattalar yordamida ijodiy
hikoya tuzadi, barcha tovushlarni to'g'ri va
aniq talaffuz qiladi, xorijiy tilni bilishi,
salomlashish va xayrlashish so'zlarini
qo'llaydi, 10gacha sanoqni biladi, Asosiy
ranglar nomini biladi (oq, sariq, qizil, yashil,
ko'k,qora)(2517-coh 8.10.2013. Maktabgacha
ta'limga qo'yiladigan davlat talablarini
tasdiqlash haqida (lex.uz).
Bilish jarayonining rivojlanishi 5-6 yoshli
bolada rasm asosida syujetni eslab qoladi va
gapiradi;

ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi, turli hayvonlarning yashash joylarini aytadi (baliq suvda yashaydi, bo'ri o'rmonda), geografik tushunchalarni biladi (yer, dengiz, tog', daryo), oddiy sabab va oqibat aloqalarni tushunadi (yomg'ir yog'yapti — panaga o'tish kerak), sinash va xatolarni tahlil qilish yo'li bilan amaliy vazifalar



yechimini topishga harakat qiladi (mashinani yurg'izish uchun kalitni burash kerak), obyektlarni tizimga solish kabi imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa qilganda, shuni ta'kidlash kerakki, Prezidentimizning 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi ta'lim tizimida salohiyatli mashg'ulot turlarining ko'payishiga asos bo'ldi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tematik rejalashtirishlar asosida faollik markazlarida mashg'ulotlar jarayoni oy mavzusi hafta mavzusunda tashkil etilishi bo'lajak kashfiyotchilarning ulg'ayishiga yordam bermoqda. Xususan,

biz ta'lim tarbiya berayotgan o'quv dargohida ham bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda ushbu tizimdan keng foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining amaldagi ifodasi bo'lgan talabalarning ijodiy ishlari jamlangan "Talabalar ustaxonasi" ishimizni yanada faol bosqichga ko'tarmoqda. Ustaxonada talabalarning innovatsion g'oyali yuzdan oshiq ishlari namuna sifatida ustaxona peshtoqchalarida terib qo'yilgan. Xaftasiga ikki soatdan to'rt kun uyushtirilgan besh turdagi to'garagimizda ushbu innovatsion ishlarning mulohazalarga boy taqdimotlarini uyushtirmoqdamiz.

Xususan,

- Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)
- 2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)
- 3. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy va plastilindan buyumlar yasash, origami mashg'ulotlari)
- 4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidalari o'yinlar)
- 5. Ilm-fan va tabiat (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari)



markazlari ketma-ketligida g`oyalar majmuasi shakllantirildi. Talabalarga mavzu asosida yasalgan ko`rgazmalar bolaning yangi bilimni o`zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida tushuntirildi. Bundan tashqari, "Mohir qullar" tugragida talalabar faollik markazlari bo`yicha ko`rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayorlashdi. Eng yaxshi ishlanmalar mualliflari Zumrad Xasanova, Sevara

Qalandarova, Hanifa Sharipova, Indira Aminboyeva, Dilbar Meliboyeva aniqlanib taqdirlandi.

Faraz qiling siz yaratgan ijodiy ish katta baholarda baholanib sharaflansa dilingizda g`urur, iftixor bilan birga g`oyaga yanada ko`proq ilmiy izlanish, yuksakroq yaratishga kirishasiz. Talabalar ham ana shu jarayonga kirishib, yangidan-yangi g`oyalarni kashf qilishmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2517-сон 18.10.2013. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida (lex.uz)
2. ["Ilk qadam" davlat o'quv dasturi - hozir.org](https://hozir.org) https://hozir.org > pars_docs > refs